



## ISSUES OF CIVIL LAW REGULATION OF THE TEMPORARY EMPLOYMENT OF ATHLETES IN SPORTS LAW

**Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich**

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

Gmail: Qurvonaliyevich@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15038949>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> March 2025

Accepted: 16<sup>th</sup> March 2025

Online: 17<sup>th</sup> March 2025

### KEYWORDS

*Player transfer, loan, professional football club, sport, professional club.*

### ABSTRACT

*The article is devoted to some problematic issues related to the temporary transfer of athletes to another club on a "loan" basis in Uzbek football. To shed light on them, some aspects of the legal regulation of relations regarding the temporary transfers of players on "loan" terms are revealed.*

## SPORT HUQUQIDA SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJRAGA OLISH FAOLIYATINI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

**Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich**

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

Gmail: Qurvonaliyevich@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15038949>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> March 2025

Accepted: 16<sup>th</sup> March 2025

Online: 17<sup>th</sup> March 2025

### KEYWORDS

*Futbolchilarning transferi, ijara, professional futbol klub, sport, professional klub.*

### ABSTRACT

*Maqola O'zbekiston futbolida sportchilarning boshqa klubga "ijara" asosida vaqtincha o'tkazilishi bilan bog'liq ayrim muammoli masalalarga bag'ishlangan. Ularni yoritish uchun futbolchilarning "ijara" shartlari bo'yicha vaqtinchalik transferlari bo'yicha munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ayrim jihatlari ochib berilgan.*

Sport ijtimoiy hayotning segmenti sifatida shakllanmoqda. Sportchilar huquqiy maqomi, sport faoliyati, davlat huquqiy tartibga solish va o'zini-o'zi tartibga solish ta'siri doirasida namoyon bo'layotganini qayd etmoq lozim. Sportchi bilan sport klubi o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi sport kontraktlarini turli konstruksiyalari bugungi kunda amaliyotda qo'llanmoqda. Sport kontraktlari mehnat shartnomasining alohida turi sifatida ham, fuqarolik, mehnat aralash shartnomasini ko'inishi sifatida ham va ba'zi holatlarda sof fuqarolik huquqiy shartnoma sifatida ham qo'llanmoqda. Bu borada amaliyot progmatizmga asoslanib nixoyatda olg'a ketayotganligini qayd etish lozim. Sportchilarni vaqtinchalik ijara olish holatlarini huquqiy rasmiylashtirish o'ziga xos yangi yuridik reallik xisoblanadi. Ushbu shartnomani huquqiy tabiatini o'rganish ijaraga beruvchi klub, ijaraga oluvchi klub va vaqtincha ijaraga berilayotgan sportchi o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar, ularning bir birlariga nisbatan o'zaro huquq, majburiyatlari, bu majburiyatlarni lozim darajada bajarish



yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda vujudga keladigan huquqiy oqibatlar bo'yicha munosabatlarni tahlil etish, ularni amaliyotini o'ziga xos jihatlarini ochib berish ham nazariy ham amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi.

Ba'zi millat va davlatlarning qadriyatlariga aylanib qolgan sport barcha zamonaviy, rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlarda aholi turmushining muhim, ajralmas qismi sanaladi.

Sport sohasidagi erishilgan yutuqlar nafaqat davlatning mavqeini ko'taradi, balki sportchilar va ularning sohasidagi tashkilotlar, federatsiyalarga katta daromad olib keladi va yangi ish o'rinlarini yaratadi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etib, mamlakat aholisining ishchanlik ruhiyatiga, mehnat qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa yalpi ichki mahsulot ortishiga, aholining faravonligini ta'minlashga katta yordam beradi.

Bir qator mutaxassislarining fikricha, jismoniy tarbiya va sport sohasi, ayniqsa, ommaviy sportning jamiyatni birlashtirish, yoshlarni zararli odatlardan xalos qilish, kasalliklarning oldini olish, o'rtacha umr ko'rish va uning sifat darajasini oshirish kabi ko'pgina ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sport sohasi va undagi xizmatlar xalqaro tartibga solish va hamkorlikning obyektidir.

Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki jahondagi rivojlangan davlatlarda ham fuqarolarni sportga jalb qilish asosiy omillardan biri bo'lib, alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi "Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 735-son Qarori bugungi kunda aholining jismoniy tarbiya va sport bilan yanada faol shug'ullanishiga zamin yaratadi.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bugun biz yurtimizda keng ko'lamlislohotlar va jadal o'zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz va bu yo'lda jismoniy sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish bizning ustuvor vazifamiz va biz buning uchun bor kuch va mablag'larimizni safarbar etamiz"<sup>1</sup>. Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat rahbarimiz e'tiboridagi asosiy masalalardan biridir.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati yurtimizda tobora ortib borayotgani qatorida uning huquqiy asoslarini doimiy ravishda takomillashtirib borilishini davrning o'zi ko'rsatib bermoqda. Xususan, professional sportdagi boshqaruv va tashkiliy organlarning samarali faoliyatini, shuningdek, mutaxassis va rahbarlarning fuqarolik-huquqiy hamda fuqarolik-huquqiy shartnomalar, jamoatchilik bilan aloqalar, sport agenti va shunga o'xshash munosabatlarning huquqiy asoslarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu esa sport sohasidagi mavjud qonunchilikning fuqarolik huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport xalqaro maydonda jadal rivojlanib, optimallashtirilib, kundan kun mamlakatlarning siyosatida uni huquqiy jihatdan tartibga solish alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. So'ngi yuz yillikda sportning rivojlanishida davlatning

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-kop-tarmoqli-humo-arena-sport-kompleksining-tantanali-ochilish-marosimidagi-nutqi>



rolini mustahkamlash tendensiyasi yuzaga keldi. Bunga huquqshunos A.Rahmatov<sup>2</sup> o'zining ilmiy ishida ta'kidlab o'tgan quyidagilarni sabab sifatida ko'rsatishimiz mumkin:

1. Sport sohasidagi qonun hujjatlarini qabul qilish;
2. Sportni rivojlantirish va moliyashtirishda hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining ishtiroki;
3. Sportning nafaqat madaniy balki biznes sohasida rivoji;
4. Sport shartnomalari subyektlarining ko'lami kengayishi va boshqalar.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda sport faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlarini qabul qilib kelishmoqda. Biroq, o'tgan asrning oxirgi yigirma yilligigacha sport sohasidagi turli qonun hujjatlari har doim ham davlatlar tomonidan qabul qilinmagan, aksincha faoliyat yuritib kelayotgan sport tashkilotlari tomonidan mustaqil ishlab chiqilib amalga oshirilgan. Haqiqatdan ham, o'sha davrlarda sport tashkilotlarning ichki ustavlari, xartiyalari, reglamentlari va qoidalari sport sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlari hisoblangan. Ammo, hozirda sport faoliyatidan kelib chiqadigan turli tuman ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi shuni ko'rsatmoqdaki, yangi shartnoma turlari va qonun hujjatlari shunchaki, ularni ustav va nizomlar bilan tartibga solish masalasi dolzarb muammoga aylanib ulgurgan.

Yangi ming yillik boshlariga kelib dunyoning yetakchi davlatlari sportning davlat, jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni va roli haqida umumiy tushunchaga ega bo'ldilar. Jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan sport ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy hodisa, insoniyat tomonidan yaratilgan zamonaviy madaniyat qadriyatlar tizimining eng muhim elementlaridan biri deb ataladi. Jismoniy tarbiya va sport harakatining faoliyat yuritishi va rivojlanishini ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishning eng muhim quroli bo'lgan, bu munosabatlarni shakllantiradigan va takomillashtiruvchi huquqning asosiy rolisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jismoniy tarbiya va sport munosabatlarini tartibga soluvchi normalar tizimi, ya'ni sport huquqi jismoniy tarbiya va sport kabi ijtimoiy ahamiyatga ega sohada yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oluvchi huquqshunoslikning o'ziga xos sohasidir.

Jismoniy tarbiya va sportning yuksak ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hayotning ushbu sohasi uchun tegishli normativ-huquqiy bazani yaratishni taqozo etdi. Mamlakatimizda huquqiy davlat barpo etish sharoitida jismoniy tarbiya va sport tizimini samarali rivojlantirish va uni milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda bozor munosabatlariga olib chiqish uchun samarali huquqiy normalar zarur.

Bugungi hayotda professional sport uning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Sport sohasiga doimiy harakatda bo'lgan o'nlab turli subyektlar jalb qilingan. Ammo bu harakat tabiatan tartibsiz emas, aksincha, u juda uyushgan va bu harakat subyektlarining har biri o'z roliga ega. Sportchilar mashq qiladilar va musobaqalarda qatnashadilar, murabbiylar yuqori sport natijasiga erishish uchun ularni shug'ullantiradilar, agentlar va promoterlar sportchilarning bandligini ta'minlaydilar, sport shifokorlari sportchilarning sog'lig'ini nazorat qiladilar, antidoping tashkilotlari antidopingni nazorat qiladilar, sport anjomlari va jihozlarini ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqaradilar va hk. Shu bilan birga, ularning barchasini

<sup>2</sup> **Рахматов А.И.** Спорт ташкилотларининг шартномавий мажбуриятлари // Юрист ахборотномаси Вестник юриста - Lawyer herald. № 2 (2021), Б. 40-47.



professional sportda yagona maqsad birlashtiradi, u ikkita asosiy segmentdan iborat — yuqori sport natijalariga erishish va foyda olish.

Sportdagi g'alabalar iqtidorli sportchilar tomonidan ta'minlanadi. Chunki, transfer bozorida klublar o'rtasida doimiy kurash olib boriladi. Klublar malakali va iqtidorli sportchilarni olish uchun ko'p pul to'lashga tayyor bo'ladilar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday miqdorlar yuzlab millionlab dollarni tashkil qilishi mumkin. Ushbu holatda klublar tomonidan faqat sportchining transferi uchun summa to'lash bilan bir qatorda o'yinchiga ham ish haqini to'lashi kerakligini anglatadi, bu ham jiddiy miqdorni tashkil qiladi. Bir tomondan sport agentlari va menejerlarining, ikkinchi tomondan sport klublarining faoliyati natijasida ma'lum qoidalar asosida o'yinchilarning bir jamoadan ikkinchisiga ko'chishi sodir bo'ladi. Sportchilarning sportdagi bunday o'tishlari transferlar deb ataladi.

Jismoniy tarbiya va sportni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish hamda professional sportni tarkib toptirishda mamlakatimizda jismoniy va sportning tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Professional sport yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi, shuningdek ayrim masalalar bo'yicha davlat boshqaruvining ayrim funksiyalari O'zbekiston milliy olimpiya qo'mitasiga berilgan. Sport federatsiyalari (assotsiatsiyalar) – jamoat birlashmalari sifatida va tadbirkorlik subyektlari (mas'uliyati cheklangan jamiyatlari), jismoniy shaxslar (professional sportchilar, trenerlar, sport agentlari, shifokorlar, reklama agentlari, sug'urta agentlari) professional sport munosabatlarining ishtirokchilari hisoblanadi.

Futbolchilarni "ijara" shartlari bo'yicha o'tkazish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sportchilarni transfer qilish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar futbol klublari - bitim taraflari ikkala tomon uchun ham eng foydali bo'lgan tarzda kelishib olish imkonini beradi. Xususan, agar klub futbolchini "ijaraga" bersa, u holda, qoidaga ko'ra, shartnomada futbolchiga maosh to'lash tafsilotlari ko'rsatilgan. Ko'pincha ijaraga oluvchi klub o'yinchining maoshini to'liq to'laydi, agar o'yinchi yaxshi darajada va katta maoshga ega bo'lsa, ijaraga beruvchi klub va ijaraga oluvchi klub ish haqini foizlarda birgalikda to'lash to'g'risida kelishib olishadi. Binobarin, mehnat qonunchiligida "ijaraga beruvchi" klubga sportchi bilan mehnat shartnomasini to'xtatib turish, "ijaraga oluvchi" klubga esa sportchi bilan muddatli mehnat shartnomasini tuzishni ko'rsatadi.

Bu sportchini sobiq klub o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni amalga oshirishning to'xtatilishi va yangi klub bilan ijara shartnomasi asosida huquq va majburiyatlar vujudga kelishini anglatadi. Shu bilan birga, transfer shartnomasida professional futbolchini "ijara" asosida transfer qilingan professional futbol klubi tomonidan zarar yetkazilganda to'lanadigan tovon pulini to'liq yoki qisman to'lash sharti, futbol klubi tomonidan to'lanadigan ish haqini kiritish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, Sportchini vaqtinchalik ijaraga olish munosabatlarini huquqiy tartibga solishda huquqiy ziddiyat va nizolarning oldini olish va bartaraf etish uchun zarur bo'lgan aniqlik mavjud emas.

Ko'rib turganimizdek, bu munosabatlarni tartibga solish mehnat va fuqarolik huquqi tarmoqlari kesishmasida joylashgan bo'lib, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi mehnat me'yorlarining imperativ xususiyati tomonlarga bitim shartlarini mustaqil ravishda belgilash imkonini beradigan fuqarolik-huquqiy normalarning ixtiyoriyligi bilan birlashtiriladi. Biz



yuqorida aytib o'tgan edik, zamonaviy bozor munosabatlari uchun va professional sportning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bu juda tipik va o'rganilayotgan munosabatlar subyektlarining subyektiv huquqlarini buzmaydigan darajada maqbul bo'lishi kerak. Misol uchun, Angliya Premer-ligasining qoidalarida qayd etilishicha, chempionatda uning ro'yxatga olish kartasiga ega bo'lgan klubga qarshi "ijaraga olingan" futbolchi ketishga haqli emas. Bunga faqat kubok o'yinlarida ruxsat beriladi, biroq oddiy mavsumdagi o'yinlarda korporativ hujjatlarda "ijaraga olingan" futbolchilarning ular bilan doimiy shartnomalari bo'lgan klublarga qarshi o'yinlarda ishtirok etishi taqiqlanadi<sup>3</sup>.

Mamlakatimizda ham sport sohasidagi qonun hujjatlari va sport tashkilotlarining reglamentida aniq qoidalarining belgilanishi bizningcha, ko'plab munozarali masalalarni paydo bo'lishini oldini olish hamda sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirishda ijobiy tajriba to'planishi uchun zamin yaratadi. Sportchi uch tomonlama shartnoma doirasida "ijaraga beruvchi" klubga qarshi o'yinlarda ishtirok etish yoki ishtirok etmaslikni sportchining o'zi hal qilsa, shartnomada sportchining huquqlari ta'minlanganligini anglatadi. Bunday holda, sportchi shartnoma tuzish bosqichida "o'z" jamoasiga qarshi o'ynashdan bosh tortishi mumkin, masalan, shaxsiy ishonchiga ko'ra, u o'zining "mahalliy" klubiga qarshi to'liq o'ynay olmaydi. Shu holatda futbolchi "ijaraga beruvchi" klubga qarshi o'ynash istagini bildirsa, uning qarori ham shartnomada mustahkamlab qo'yiladi va shartnoma taraflaridan hech biri unga buni taqiqlashga haqli bo'lmaydi. Shu bilan birga, "ijaraga oluvchi" klub, agar bu shartnomada aks ettirilgan bo'lsa, "ijaraga beruvchi" klub foydasiga tovon to'lovlarini amalga oshirishga majbur bo'ladi. Shunda shartnomaviy munosabatlar ko'p jihatdan tomonlarning har birining manfaatlarini aks ettiradi. Xususan, futbolchining huquqlari ta'minlangan, "ijaraga beruvchi" klubi tovon puli (naqd pul to'lovi) oladi, "ijaraga oluvchi" klub naqd to'lovlarni amalga oshiradi va barcha o'yinlarda o'yinchining mahorat va qobiliyatidan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, vaqtinchalik ish beruvchining manfaatlarini qondirish uchun sportchining "lizing beruvchi" klubiga qarshi o'yinlarda ishtirok etishi uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lash majburiyati sportchining o'ziga yoki birdamlik uchun yuklanishi mumkin. u va u vaqtincha o'ynagan futbol klubi.

Sport va sport faoliyati-bu turli xil odamlarning jismoniy va intellektual qobiliyatlarini musobaqa shaklida qarama-qarshi qo'yishdan, shuningdek ushbu musobaqaga tayyorgarlikdan iborat bo'lgan bir qator talablarni hisobga olgan holda tashkil etilgan odamlarning faoliyati. Sport, inson faoliyatining bir turi sifatida, raqobatbardosh maqsadlarda, qandaydir raqobatbardosh faoliyatda turli shaxslarning qarama-qarshiligi shaklida amalga oshiriladi.

Rim huquqidan beri ma'lum bo'lgan eng qadimiy huquqiy tuzilmalardan biri shartnomadir. Shartnoma mulkiy (fuqarolik huquqi) aylanmasini huquqiy tartibga solishda markaziy o'rinni egallaydi. Mulk aylanmasi tovar-pul va bozorning huquqiy ifodasi sifatida iqtisodiy munosabatlar fuqarolar va tashkilotlar tomonidan tuzilgan barcha fuqarolik-

<sup>3</sup> English Premier League Rules // URL: <http://www.premierleague.com/en-gb/news/features/the-premier-league-handbook-201213-explained.html> (accessed 11/21/2014)



huquqiy bitimlar yig'indisidan iborat.<sup>4</sup> Fuqarolik huquqi fanida to'g'ri ta'kidlanganidek, "fuqarolik-huquqiy shartnoma iqtisodiy ayirboshlash munosabatlarining asosiy, eng muhim huquqiy shaklidir." Tovar egalari o'zlarining erkin va kelishilgan ixtiyori bilan harakat qiladilar. Sport faoliyati to'g'risidagi kontrakt professional sportchi (trener, mutaxassis) va jismoniy tarbiya-sport tashkiloti rahbari o'rtasidagi yozma shakldagi kelishuv ko'rinishida O'zR mehnat qonunchiligi asosida tuziladi. Kontraktda sportchining majburiyatlari, uning ijtimoiy va tibbiy sug'urtaga bo'lgan huquqi, kontrakt tuzish va bekor qilish tartibi aks ettirilishi lozim. Sport faoliyati bo'yicha kontrakt boshqa shartlarni ham nazarda tutishi mumkin. Jismoniy tarbiya va sport tashkiloti sportchining musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishi va qatnashishi, o'z vaqtida to'lovni amalga oshirishi va boshqa kontraktda belgilangan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan majburiyatlarni bajarishi lozim. Yuqorida keltirilgan tushunchalardan ma'lumki, sport kontrakti shartlari mehnat qoidalarni o'z ichiga olmaydi. Shu bilan birga, sport faoliyati to'g'risidagi shartnomada Mehnat kodeksiga noma'lum, professional sportning o'ziga xos xususiyatlari tufayli uni tuzish va tugatish uchun alohida shartlar ko'zda tutilishi lozim. Aslida, ishchi-sportchi va ish beruvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ma'lum bir o'ziga xos xususiyatga ega va uning ba'zi ko'rinishlarida noyobdir.

Bugungi zamonaviy jamiyatda professional sport asta-sekin nufuzli faoliyat sohasiga aylanib bormoqda. Professional sportchi o'z ishini professional darajada bajaradigan va buning uchun munosib haq oladigan yuqori malakali mutaxassis sifatida qaraladi. Shuning uchun sport huquqi sohasiga ko'proq e'tibor berish va aynan sport sohasidagi mehnat munosabatlarining, sport kontraktlarning, huquqiy tartibga solinishini o'rganish dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sportchilarning shartnomalar tuzish huquqlari to'g'risida bayon etilgan. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuninin 25-moddasida "sportchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy tarbiya va sport va boshqa tashkilotlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish ga haqli ekanligi belgilangan.

O'yinchilarning transfer shakllaridan biri bu ularni boshqa klubga vaqtinchalik "ijara" asosida o'tkazishdir. Futbolchining ijara - bu sportchini klubdan klubga o'tkazishning o'ziga xos turi bo'lib, uning harakatining vaqtinchalik xususiyati bilan tavsiflanadi va "ijara" shartlari bo'yicha professional futbolchi va ikkita tegishli futbol klubi o'rtasida tuzilgan transfer shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Sport bugungi kunda inson faoliyatining alohida turi sifatida bizning ijtimoiy hayotimizda alohida o'rin egallayapti. Sport kontrakti mohiyati bo'yicha ko'pincha mehnat shartnomasi bo'lsa ham aralash shartnoma hisoblanadi. Uning ba'zi shartlari fuqarolik huquqiy shartlardan iborat. Demak, aralash shartnoma bo'ladigan bo'lsa, mehnat shartnomasini tuzish boshqacha, fuqarolik huquqiy shartnomani tuzish boshqacha bo'ladi. Sportchini vaqtincha ijaraga olish kontrakti namunaviy va individual sport kontraktlariga huquqni qo'llash amaliyotida bo'lishimiz mumkin. Agar O'zbekistonda namunaviy sportchini vaqtincha ijaraga olish shartnomasini bo'ladigan bo'lsa, Futbol assotsatsiyasida yuzlab o'yinchilar bor va ular bilan yuzlab shartnomalar tuzilgan. Bu tuzilgan shartnomalar ko'p

<sup>4</sup> Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Shartnoma huquqi. Birinchi kitob: Umumiy qoidalar: Ed. 2, rev. - M: "Nizom", 1999.-S. 7.



holatda namunaviy hisoblanadi. Lekin ayni paytida individual sport kontraktlari mavjud bo'lib, talantli va qobiliyatli sportchilar bilan tuziladi. Masalan, chet eldan ijaraga sportchi olib kelinadigan bo'lsa, bu o'yinchi har doim o'zi bilan individual shartnoma tuzishni talab qiladi.

Odatdagi namunaviy shartnoma uni qoniqtirmaydi. Xuddi mana shunday holatlarda individual shartnomalarda shartnoma oldi muzokaralar bo'ladi. Shartnoma oldi muzokaralarni sportchini o'zi yoki sportchini agenti olib borishi mumkin. Ko'pincha sport agentlari tegishli klub bilan shartnoma oldi muzokaralar olib boradi. Sportchi nimani xohlaydi, o'zi uchun qanday sharoitlarni xohlaydi va bu shartlar individual shartnomaning o'ziga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Mehnat shartnomada qanday shartlar aks ettirilishi, fuqarolik huquqiy shartnomada qanday shartlar aks ettirilishi ko'rib chiqamiz. Umuman olganda mehnat shartnomasida tavakkal qilish burchi ish beruvchi zimmasida bo'ladi. Ayni paytda ish beruvchi sug'urta va pensiya to'lovlarni amalga oshiradi. Keyin mehnat kodeksida xodim uchun alohida kafolatlar mavjud. Masalan, ishlab chiqarish zaruriyati tufayli bo'sh qolish bunga xodim aybdor emas. Biz bilamizki, ikkala taraf ham teng huquqli hisoblanib, tavakkal qilish burchi masalan pudratchini zimmasiga yuklatiladi.

Sportchi bilan shartnoma tuzish asosi 2015-yil 5-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuning 25-moddasida belgilangan bo'lib. Unga ko'ra sportchi qonunchilikda belgilangan tartibda jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish kerakli belgilangan. Yuqoridagi qonunga asosan Sportchilar va Sport tashkilotlari o'rtasida amaldagi qonunchilikka muvofiq sport kontraktlari tuzish mumkinligi ko'rsatilgan. Ushbu shartnomalarning huquqiy tabiati ilmiy adabiyotlarda yakdil fikr yo'q. Shunday nuqtai nazar borki bu aralash shartnoma, bu mehnat shartnomasi, bu fuqarolik shartnoma degan fikrlar ham bor. Bu yerda shunday nuqati nazar borki, sportchilar va sport tashkilotlari o'rtasida tuziladigan sport kontraktlarini mehnat shartnomasi sifatida talqin qilishadi. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga ko'ra sport kontraktlarini mehnat shartnomasi sifatida va Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra sport kontraktlarini fuqarolik shartnomasi sifatida talqin qilishadi. Bizningcha sport kontraktlarini aralash shartnoma sifatida talqin etish maqsaga muvofiq bo'ladi. Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga asosan Taraflar turli shartnomalarning elementlarini o'z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkin.

Aralash shartnoma bo'yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo'lgan shartnomalar to'g'risidagi qoidalar qo'llanilishi belgilab qo'yilgan. Masalan, shunday fuqarolik huquqiy shartnomalar borki, bir paytning o'zida xizmat ko'rsatish shartnomasining belgilari bor va intellektual ijodiy faoliyat shartnomasini amalga oshirish shartnomasi elementlari bor. Qonun ushbu shartnomalarni taqiqlamaydi. Demak, turli shartnoma elementlarini o'z ichiga olgan shartnoma konstruksiyasini tuzish mumkin. Bunga fuqarolik huquqida ushbu shartnomalarni tuzishga yo'l qo'yiladi. Shuningdek, boshqa huquq tarmoqlarida bunga yo'l qo'yiladi. Masalan, "xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonunda ichki xo'jalik shartnomalarining konstruksiyasi mavjud bo'lib, bu ichki xo'jalik shartnomalari bir



paytning o'zida ham fuqarolik huquqiy shartnomalarni o'z ichiga oladi, ham mehnat huquqlarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Professional sport munosabatlariga oid davlat boshqaruvi birinchidan, sport tashkilotlarining mustaqilligi, ikkinchidan o'zini o'zi boshqarish, uchinchidan, foyda olishga qaratilganligi, to'rtinchidan, davlatning sohaga oid muayyan standart va qoidalarni milliy qonunchiligimizda joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### References:

1. Мирзиёев Ш.М. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-kop-tarmoqli-humo-arena-sport-kompleksining-tantanali-ochilish-marosimidagi-nutqi>;
2. Рахматов А.И. Спорт ташкилотларининг шартномавий мажбуриятлари // Юрист ахборотномаси Вестник юриста - Lawyer herald. № 2 (2021), Б. 40-47.
3. English Premier League Rules // URL: <http://www.premierleague.com/en-gb/news/features/the-premier-league-handbook-201213-explained.html> (accessed 11/21/2014)
4. <sup>1</sup> Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Shartnoma huquqi. Birinchi kitob: Umumiy qoidalar: Ed. 2, rev. - M: "Nizom", 1999.-S. 7.